O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Bandli seldereyni sotish va uning savdo sifatini nazorat qilish standarti

(FFV-12:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-12:2023 “Concerning the marketing and commercial quality control of ribbed celery” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni yengillashtirishga, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, ishlab chiqaruvchilar rentabelligini oshirishga hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, importerlar va eksporterlar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi keng turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Mazkur qayta ko‘rib chiqilgan bandli selderey standarti ECE/TRADE/C/WP.7/GE.1/2010/INF.49 standarti asosida ishlab chiqilgan va Ishchi guruhning oltmish oltinchi sessiyada ko‘rib chiqilib qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

BANDLI SELDEREYNI SOTISH VA UNING SAVDO SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, КАСАЮЩИЙСЯ МАРКЕТИНГА И КОММЕРЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА РЕБРИСТОГО СЕЛЬДЕРЕЯ

STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF RIBBED CELERY

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart *Apium graveolens var. dulce (Mill.) Pers.* turiga mansub navlardan yetishtirilgan, iste’molchiga yangi holatda yetkazib beriladigan bandli seldereyga nisbatan tatbiq etiladi, sanoat maqsadida qayta ishlash uchun mo‘ljallangan bandli selderey ushbu standart doirasiga kirmaydi.

II Sifatga oid talablar

Standartning maqsadi bandli selderey tayyorlash va qadoqlashdan keyingi sifat talablarini belgilashdan iborat.

Agar standart eksportdan yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulotlarda quyidagi yengil og‘ishlar bo‘lishi mumkin:

- yangiligi va tarangligining biroz kamayishi;
- rivojlanish jarayoni va tez buziluvchanlikka moyilligi oqibatida yengil darajada sifat pasayishi.

Mahsulot egasi yoki sotuvchi bandli seldereyni faqat ushbu standart talablariga muvofiq holda namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa shaklda realizatsiya qilishi mumkin. Standartga muvofiqlik uchun egasi/sotuvchi javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha Sinflarda, har bir Sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan qo‘yimlar doirasida bandli selderey quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Biroq, eksport/jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagi holatlarni namoyon qilishi mumkin:

- yangi, chirigan yoki iste’mol uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotga yo‘l qo‘yilmaydi;
- toza, ko‘rinadigan begona aralashmalarsiz;
- yangi ko‘rinishda bo‘lishi;
- zararkunandalardan deyarli xoli;
- zararkunandalar yetkazgan shikastlarsiz;
- sovuq urishi natijasidagi shikastlanishlarsiz;
- kovaklar, yon novdalarsiz va gul poyalarisiz;
- yuvilgan bo‘lsa, me’yordan ortiq tashqi namliksiz

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- begona hid va/yoki ta’msiz bo‘lishi kerak.

Pastki qismidagi kesim toza bo‘lishi lozim.

Bandli seldereyning rivojlanish darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, u:

- tashish va yusinfh-tushirish jarayonlariga bardosh bera olsin;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borsin.

B. Tasniflash

Bandli selderey quyidagi ikki Sinfga bo‘linadi:

(i) I-Sinf

Ushbu Sinfga kiruvchi bandli selderey yuqori sifatli bo‘lishi kerak. U o‘z navi va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

U bir xil shaklga ega bo‘lishi hamda barglarida yoki barg bandlarida kasallik alomatlari ko‘rinmasligi kerak.

Barg bandlari sinmagan, tolali bo‘lmagan, ezilmagan va yorilmagan bo‘lishi shart.

Oqartirilgan qovurg‘ali seldereyning barglari uzunligining kamida yarmigacha oq, sarg‘ish-oq yoki yashil-oq rangda bo‘lishi kerak.

Quyidagi yengil nuqsonlarga ruxsat etiladi, agar ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasa:

- shakldagi kichik nuqsonlar.

(ii) II-Sinf

Ushbu Sinfga I-Sinf talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan bandli selderey kiradi.

Oqartirilgan bandli seldereyda barg bandlari uzunligining kamida uchdan bir qismi oq, sarg‘ish-oq yoki och yashil rangda bo‘lishi lozim.

Bandli selderey, quyidagi nuqsonlarga ruxsat etiladi, agar mahsulot sifat, saqlanuvchanlik va ko‘rinishi jihatidan asosiy xususiyatlarini saqlab qolsa:

- yengil zang izlari;
- kichik deformatsiya;
- yengil ezilishlar;
- ikki donadan ortiq bo‘lmagan barg bandlarining sinishi, ezilishi yoki yorilishi.

III. O‘lchashga oid qoidalar

O‘lcham bir dona mahsulotning vazni bo‘yicha belgilanadi.

- Minimal vazn — 150 g.

Bir qadoq ichida o‘lcham bir xilligini ta’minlash uchun ruxsat etilgan maksimal farq:

- 800 g dan ortiq bo‘lgan (“katta”) seldereylar uchun — 200 g;
- 500–800 g oralig‘idagi (“o‘rtacha”) seldereylar uchun — 150 g;
- 150–500 g oralig‘idagi (“kichik”) seldereylar uchun — 100 g.

I-Sinf uchun o‘lcham bir xilligi majburiy hisoblanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IV. Ruxsat etilgan qo‘yimlar

Savdoning barcha bosqichlarida har bir to‘plamda ko‘rsatilgan[1] sinf va o‘lcham talablariga to‘liq javob bermaydigan mahsulotning cheklangan miqdoriga ruxsat etiladi.

[1] Muvofiqlik tekshiruvi birlamchi yoki murakkab namunalarni baholash yo‘li bilan amalga oshiriladi. U tasodifiy tanlab olingan namunalar sifati to‘plam sifatiga reprezentativ degan prezumpsiya prinsipiga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha IHTT operatsion qoidalari jo‘natish bosqichlarida, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosining ulgurji-taqsimlash markazlari va omborxonalarida, shuningdek operatorlar tomonidan qo‘llash uchun tavsiya etiladi.

A. Sifat bo‘yicha qo‘yimlar

(i) I-sinf

I-sinf talablariga javob bermaydigan, biroq II-sinf talablariga mos keladigan mahsulotlarning umumiy qo‘yim 10 % gacha ruxsat etiladi. Ushbu qo‘yim doirasida II-sinf va minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki chirigan mahsulotlar qo‘yim 1 % dan oshmasligi kerak.

(ii) II-sinf

II-sinf va minimal talablarga javob bermaydigan mahsulotlarning umumiy qo‘yim 10 % gacha ruxsat etiladi.

Shu jumladan chirigan mahsulotlar qo‘yim 2 % dan oshmasligi kerak.

B. O‘lchashga oid qo‘yimlar

Barcha sinflar uchun (agar o‘lcham bo‘yicha saralangan bo‘lsa): o‘lcham talablari bo‘yicha mos kelmaydigan bandli selderey uchun soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foizgacha qo‘yimga ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid talablar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi kelib chiqishi, navi yoki tovar turi, sifati, rangi va o‘lchami (agar o‘lchami bo‘lsa) bo‘yicha bir xil bo‘lishi kerak.

Qadoqning ko‘rinadigan qismi butun tarkibni aks ettirishi kerak.

B. Qadoqlash

Bandli selderey mahsulotni yetarli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak. Ichki materiallar toza va mahsulotga zarar yetkazmaydigan bo‘lishi kerak.

Bosma materiallar, yorliqlar va shtamplar uchun toksik bo‘lmagan siyoh va yelim ishlatiladi.

Mahsulotga yopishtiriladigan stikerlar olib tashlanganda iz qoldirmasligi va po‘stloq nuqsonlariga olib kelmasligi kerak.

Qadoqlar begona aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VI. Tamg‘alash

Har bir qadoqda[2] quyidagi ma’lumotlar aniq, o‘chmaydigan va tashqaridan ko‘rinadigan tarzda, bir tomonda joylashtiriladi:

_____

[2] Mazkur markirovkalash qoidalari ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan o‘ramlar ichida taqdim etilgan savdo o‘ramlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan savdo o‘ramlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) tatbiq etiladi.

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat) yoki milliy vakolatli[3] organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMT YIK kod belgilari reyestrida[4] ro‘yxatga olingan bo‘lsa. Ko‘cha manzili mavjud bo‘lmagan holatlarda, jismoniy manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki muassasa nomi, eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksidan foydalanish mumkin. Shuningdek, GPS koordinatalari va pochta qutisi manzili, eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birgalikda ham jismoniy manzil[5] sifatida qabul qilinadi.

B. Mahsulot tavsifi

- “Bandli selderey” agar mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmasa va undan keyin “oqartirilgan selderey” yoki shunga o‘xshash nom ko‘rsatilishi kerak.

C. Mahsulotning Kelib chiqishi

- kelib chiqish mamlakati[6] ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan tuman yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi.

D. Savdo tavsiflari

- sinf;
- o‘lcham (agar o‘lcham bo‘lsa) “kichik”, “o‘rtacha”, “katta”;
- dona soni yoki, zarur bo‘lsa, bog‘lamlar soni.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

_____

3 Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kod belgisidan foydalanilgan holda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga o‘xshash qisqartmalar)" iborasi kod belgisi bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatilishi lozim. Bundan tashqari, agar mahsulot kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 (alfa-2) mamlakat/hudud kodi ko‘rsatilishi shart.

4 Quyidagi havolaga qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

5 Amerika Qo‘shma Shtatlari pochta qutisi manzilidan foydalanishga e’tiroz bildiradi, chunki bu obyektlarni tekshirishga yoki chaqirib olingan taqdirda tezkor aralashuvga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, bu qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi bilan bog‘liq milliy markirovkalash talablarining bir qismi hisoblanmaydi.

6 To‘liq yoki keng tarqalgan nom ko‘rsatilishi lozim.

Qabul qilingan: 1964-yil

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCEX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Oxirgi marta qayta ko‘rib chiqilgan: 2010-yil
Yagona standart tuzilmasiga moslashtirilgan: 2023-yil

STANDARTLAR INSTITUTI #TNMAQVSCLX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI